

MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH SHARTLARINING DIDAKTIK KOMPLEKSINI AMALIYOTDA QO‘LLASH YO‘LLARI

To‘xtasinov Dadaxon Farhodovich

P.f.b.f.d.(PhD), Farg‘ona davlat universiteti

Abdullayeva Sabohat Hamidjon qizi

Magistr, Farg‘ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Quyida keltirmoqchi bo‘lgan fikrlarimizda matematika darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish shartlarining didaktik kompleksini amaliyotda qo‘llash va matematika darslarida kreaktiv metodlardan foydalanish yo‘llari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: masala, kreativlik, ijodiy tafakkur, metod, mantiqiy fikrlash.

O‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunga ega, ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta’lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab mamlakatlarda o‘qitish tizimlarining amaliyotga joriy qilinishi o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, didaktik, kreativ (ijodkor), ijodiy, kasbiy bilimlardan samarali foydalanish texnologiyalarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda boshlang‘ich ta’limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarining didaktik-pedagogik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar doimiy ravishda o‘tkaziladi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni yaratish zaruriyati o‘rtaga tashlanadi.

Respublikamizda umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining erkin, mustaqil fikrlash, atrofda voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, ijodiy tafakkuri rivojlangan

shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratilgan. Bunda “yoshlarni jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlagan, vatanga sodiq, qa’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bunda shaxsning intellektual sifatlarini shakllantirish, tajriba va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat ega.


“Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi birinchi o‘rindagi muhim masalalar qatorida turibdi. Ularni erkin fikrli, ijodiy fikrlay oladigan bo‘lishi, jahon ta’lim standartlariga mos kela oladigan ta’lim olishi buyuk kelajak uchun qo‘yilayotgan mustahkam poydevordir. Buning uchun esa avvalo ta’lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozimdir. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika darslarida ijodiy fikrlashga, matematikaning asosi bo‘lgan masalalarni yechimiga jodiy fikr yuritgan holda yondosha olishga o‘rgatish ham hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Boisi, ijodiy fikrlay olgan bola kelajak hayotda yoki turmush tarzida ham olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi deb ishonamiz.

Pedagoglar biz ilgari surayotgan g‘oyalar asosida faoliyat yuritsa va buning natijasida O‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantira olinsa u holda, o‘quvchilar turli yo‘nalishlarda o‘ylashi, muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishi, noodatiy vaziyatlarda yechim topishi, aqliy faoliyatning o‘ziga xosligi rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali o‘z fikrlariga ega shaxs qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi. Xususan matematika darslarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ijodiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, ushbu o‘rinda matematik masalalarga to‘xtalmaslikni ilojisi yo‘q. Boisi, o‘quvchi masala shartida aks etgan muammoli vaziyat ustida fikr yuritadi va eng maqbul yechimni topadi. Bu orqali o‘quvchilarda kundalik hayotda ham har bir vaziyatga o‘z fikrini bildirib maqbul yechimni topa olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatini inobatga olish va unga muvofiq yondashish, shuningdek, o‘quvchilarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash, bildirayotgan fikrlarini xolis baholab to‘g‘ri yo‘naltirish har bir pedagogning vazifasidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan metodlarni pedagogik, psixologik va didaktik omillarni aniqlab, matematika darslari tamoyillariga moslashtirgan holda ishlab chiqish va darslarda samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri, o‘z o‘rnida, maqsadli hamda unumli foydalanishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Quyida matematika darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish shartlarining didaktik kompleksini amaliyotda qo‘llash yo‘llarini bir necha metodlar orqali ko‘rib chiqamiz.



“Besh barmoq” metodi- keltirib o‘tilgan ushbu metod orqali biz matematikani boshqa fan ya’ni tasviriy san’at fani bilan ham bog‘laymiz va o‘quvchi ko‘z o‘ngida masala shartini shakllantiramiz. Ushbu metoddan foydalanishda albatta biz o‘quvchilarga istalgan qog‘ozga barmoqlari rasmini chizish aytiladi va masala shartini yuqoridagidek yoki o‘quvchi o‘zi istagan, tushungan holatda aks ettirishi aytiladi va yoki birgalikda bajariladi. Bu orqali masalani yanayam tushunarli bo‘lishi, ayrim o‘quvchilarda tushuncha hosil bo‘lishiga erishiladi. Agar o‘quvchi masala shartini anglab yetsa yoki nimani topish kerak, nima yashirin shularni aniqlab olsa yechimini topishi oson bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Keltirib o‘tilgan ushbu metoddan murakkab masalarni yechimini topishda ko‘proq qo‘l keladi.

Bu metod bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda ham pedagog uchun qulay usul hisoblanadi. Boisi masala shartini yuqorida keltirib o‘tilgandek bajariladi va oxirida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida har bir bajarilgan amal bo‘yicha natija tekshiriladi, agar o‘quvchi javobi to‘g‘ri bo‘lsa o‘sha amal yozilgan barmoq tik holatda qoladi, bordi-yu xato bo‘lsa barmoq bukib qo‘yiladi va so‘ngida besh barmoq ko‘tariladi agar besh barmoqda 5 ta barmoq tursa o‘quvch masalani to‘g‘ri va xatosiz ishlagan bo‘ladi.

“Hamkorlik” metodi- ushbu metod orqali o‘quvchilarda bir damlik, yakdillik kabi hususiyatlari tarkib toptiriladi va sinfdagi va yoki jamoadagi barcha o‘quvchilar birga ishlaydilar va ularni har birini fikrlari umumlashtiriladi. Bu orqali ayrim chetda qolib ketuvchi o‘quvchilar bilan ishlash va ularni fikrini bilish imkoniyati yuzaga keladi. Bizga ma’lumki har bir bola o‘z fikrini bemelol bayon eta olmaydi bu metod orqali ana shunday o‘quvchilarni fikrlashga undaladi. Bu metodni qo‘llashda hammaga bir masala sharti yoki sxama tarzdam, jadvalli yoki rasml, grafikli tarzda beriladi agar pedagog istasa guruhlar bilan ishlashi mumkin. Ya’ni har bir guruh sxama tarzdam,

jadvalli yoki rasmlı, grafikli ko‘rinishdagi masalani qisqa ko‘rinishi taqdim etiladi. Ular oldin masala tuzadilar, keyin almashadilar va masala shartini bajaradilar. Masalaga qaysi guruh kreativ tomondan yondosha olgan bo‘lsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Bu metoddan yakka tartibda shug‘ullanishda yoki to‘garaklarda ham foydalanish mumkin. Boisi ayrim o‘quvchilar omma oldida o‘z fikrini bildira olmaydi bu metod orqali ularni fikrini bilish va ularda ijodiy tafakkurlarini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, biz yuqorida keltirib o‘tgan metodlar orqali matematika datsrlarida o‘quvchilar ijodiy tafakkurlarini rivojlantira olishimizga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bikbaeva N.U. R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent. —O‘qituvch
2. Axmedov M. , Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo‘llanma.Toshkent. 2005 yil.
3. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida test metodini qo‘llashda STEAM dasturini imkoniyatlari.metodik qo‘llanma.Toshkent-2022
4. Dissertatsiya.”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar”Chirchiq-2023
5. Boshlang‘ich sinflarda faraz qilishga doir masalalarni yechishning nazariy asoslari Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
6. Matematika 3 o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / L. O‘.O‘rinboyeva [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.